

BUXORO AMIRLIGIDA DAVLAT BOSHQARUVI

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti o'qituvchisi

Xatambekov Lazizbek Farhod o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Buxoro amirligining davlat tuzumi, davlat boshqaruv idoralarga bo'lingaligi, yuqori-oliy va quyi mansablar, ularning faoliyat vazifalari, ma'muriy jihatdan viloyat va tuman birliklari hamda ularga oid boshqaruvning alohida jihatlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, davlat tuzumi, diniy va dunyoviy mansablar, qo'shbegi, devonbegi, ko'kaldosh, muhtasib, shayxulislom, to'qsabo, Amir Shohmurod, Davlat kengashi.

Buxoro amirligida oliy hukmdor amir hisoblanib, uning hokimiyati avloddan avlodga meros tarzda o'tgan. Amirlikni mang'itlar sulolasiga mansub cheklanmagan hokimiyatga ega bo'lgan hukmdorlar boshqargan.

Buxoro shahri amirlikning ma'muriy markazi edi. Amirlikda ijro hokimiyati bosh vazir - qo'shbegi qo'lida bo'lgan. Viloyat va tuman hokimlari qo'shbegi tavsiyasi bilan tayinlangan. Moliya va xazina ishlari, soliqlar to'planishi kabi sohalarni devonbegi idora qilgan [O'z ME. 2000. 125 b].

Devonbegiga tashqi aloqalarni yuritish ham yuklatilgan. Unga amirlik hujjatlarini yuritishga mas'ul mirzaboshi bo'ysungan. Buxoro amirligida sud boshlig'i qozikalon, raiskalon hisoblangan. Amir qarorgohi hisoblangan arkda taxt vorisi - valiahd tarbiyasi bilan otaliq mashg'ul bo'lgan. Vaqf ishlari va mulklari bilan sadr shug'ullangan [Shukurov R. 2019. 6 b.].

XIX asr oxirida Buxoro amirligi aholisi 2 million kishi atrofida bo'lgan.

Uning tarkibiga Zarafshon vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo vohasi va hozirgi Tojikiston hududining ayrim viloyatlari, hozirgi Turkmanistonning Murg'obgacha bo'lgan bir qismi kirar edi. Shahar va qishloqdagi aholining ko'pchilik qismida o'zbeklar, tog' va tog'oldi joylarida tojiklar yashar, Marvning janubiy hududlarida turkmanlar, shimoliy va sharqiy yerlarda qozoq va qirg'izlar yashar edi.

Rossiya bilan 1868-yilgi shartnoma Buxoro amirligi taqdirini tubdan o'zgartirib yubordi. Sobiq "islom gumbazi" suverenitet va mustaqillikdan mahrum bo'lib, Rossiyaga qaram va mute bir davlatga aylanib qoldi. Garchi siyosiy mustaqilligidan mahrum bo'lsa-da, Buxoro amiri o'z fuqarolari ustidan cheklanmagan hokimiyatini qo'lida saqlab qolgan edi [www.wikipedia.uz, internet sayti].

Buxoro davlat tuzumiga ko'ra monarxiya davlati edi. Davlat tepasida amir, ya'ni yakka mustabid hukmdor turgan. Hukmdor rasman cheklanmagan huquqqa ega bo'lib, butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. U davlatni o'zi ishongan eng oliy toifadagi amaldorlar (arkoni davlat) ga tayanib idora qilgan. Hukmdor amalda davlatni boshqarishda eng nufuzli qabilalarning boshliqlari bilan hisoblashib ish tutgan.

Buxoro amirligi ma'muriy jihatdan viloyatlarga va tumanlarga bo'lingan. Chunonchi amirlik davlati 40 viloyat va tumanliklardan iborat edi. Amirlikning yer maydoni taxminan 270 ming km kv., aholisi esa 2 mln atrofida bo'lган. Aholisini o'zbeklar, tojiklar, turkmanlar, qolgan qismini esa qoraqalpoqlar, qozoqlar va boshqa xalqlar tashkil etgan [O'z ME. 2010. 119-123 b.]. Amir tayinlaydigan hokim boshqaradigan hudud viloyat deb atalgan. Amirlikning poytaxti Buxoro shahri va viloyatini qo'shbegi boshqargan. Amirlikning alohida davlat xazinasi bo'lмаган, xazina amirning mulki bo'lган.

Amirlikning davlat muassasalari ma'muriy, moliya, qozilik, mirshablik va harbiy idoralardan iborat bo'lган. Ularning har biriga tayinlangan amaldor rahbarlik qilgan. Buxoro xonligi saroyida 30 ga yaqin amaldor xizmat qilgan. Mahalliy boshqaruv muassasalarida xizmat qiluvchilarning soni 30 ming atrofida bo'lган. Bundan tashqari, 40 beklik-viloyat tepasida mahalliy qabila boshliqlari turardi.

Markaziy hokimiyatda devonbegi, ko'kaldosh, qo'shbegi, mushrif, mirshab, dodxoh, inoq, miroxur, dasturxonchi, kitobdor, to'qsabo, parvonachi, sadr, shayxulislom, qozikalon, muftiy, muhtasib kabi yuqori martabali lavozimlar joriy etilgan [Xabibovich. H. B. 2022. 11 b.]. Eng katta davlat lavozimi-qo'shbegi (vaziri buzruk), ya'ni Bosh vazir lavozimi edi. Davlatning barcha boshqaruv idoralari unga bo'ysunar edi. Bir so'z bilan aytganda, barcha ijroiya hokimiyat qo'shbegining qo'lida edi. Viloyat va tuman hokimlari ham qo'shbegi tavsiyasiga binoan tayinlanar edi. Qo'shbegi xon Arkida yashagan.

Buxoro amirligining davlat tuzumi ashtarxoniyalar hukmronlik qilgan. Buxoro xonligining davlat tuzumidan kam farq qilgan. Bu davrda davlat boshlig'i-amirning hokimiyati tobora cheklanmagan xarakterga ega bo'lib borgan. Umuman XIX asrda Buxoro amirligi yakka hokim boshchiligidagi markazlashgan davlat edi. Davlat mutlaq qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatga ega bo'lgan amir tomonidan idora etilardi.

Davlat hayotiga taalluqli eng muhim siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa shu kabi masalalar Buxorodagi bosh qarorgoh-Arkda hal etilardi. Arkda amir va uning oilasidan tashqari qo'shbegi, shig'ovul, to'pchiboshi, mirzaboshi va boshqa ba'zi saroy amaldorlari, ularning oilalari, xizmatkorlari yashaganlar. Vaqtি-vaqtি bilan Davlat Kengashi chaqirilib turlardi. Odatda 5 tadan 20 tagacha eng yuqori amaldorlar a'zo bo'lgan bu kengashda davlat hayotiga taalluqli o'ta muhim masalalar ko'rib chiqildi[Shukurov R. 2019. 8 b.].

Mang'itlar davrida ham davlat boshqaruvi asosan ikki bo'g'inli, ya'ni markaziy va mahalliy boshqaruvdan iborat bo'lib, ularning har biri musulmon davlatlariga xos bo'lgan murakkab boshqaruv tarmoqlariga ega edi. Markaziy ijroiya hokimiyat saroy a'yonlaridan tashkil topgan edi. Mang'itlar sulolasi davrida davlat boshqaruvida qo'shbegi mansabini egallagan kishining mavqeyi juda oshib ketdi. Bu mansab egasi amalda bosh vazir hisoblanardi. Davlat boshqaruvida devonbegi, parvonachi, otaliq, dodxoh, xudoychi, mirzaboshi va boshqa saroy a'yonlarining hamda shayxulislom, qozikalon kabi diniy rahbarlarning ham ahamiyati yuqori edi[Toshmurodova S. Q..... 2021. 411- 415 b.].

Amir Shohmurod o'z hukmronligi davrida hokimiyatni boshqarish tartiblarini qayta tuzdi. Uning hukmronligi davrida moliya, sud, ma'muriy va harbiy ishlar sohalarida islohotlar o'tkazildi. Bu islohotlami Shohmurod xalqning norozilik qo'zg'olonlari tufayli o'tkazgan edi. Bu islohotlar ichida davlat boshlig'i unvonining o'zgartirilishi ham diqqatga sazovordir. Shohmurod turkiy xalqlarda udum bo'lib kelgan xonlik unvonidan voz kechib, amirlik unvonini oldi, ushbu yangilik Buxoroning islom davlati, uning hukmdori esa musulmonlar amiri ekanligiga hamda otasi Doniyolbiy xon emas, otaliq mansabida bo'lganligiga ishora edi. Shohmurodbiy joriy etgan bu unvонни со'nggi mang'it hukmdorlari 1920-yilgacha qo'llab keldilar [www.wikipedia.uz, internet sayti].

Davlat ishlarini boshqaruvchi oliy amaldor qo'shbegi bo'lib, u soliqlar yig'imini boshqarar, ma'muriy amaldorlar tarkibiga rahbarlik qilar, mahalliy beklar bilan yozishmalar olib borar edi. Qo'shbegi har kuni shaxsan hukmdorga amirlikdagi ahvol to'g'risida ma'lumot berib turar edi. Barcha amaldorlar qo'shbegi tomonidan, faqat oliy amaldorlargina amirning o'zi tomonidan tayinlanar edi. Xazina va zakot yig'imini boshqargan devonbegi lavozimi ahamiyati va mavqeい jihatidan qo'shbegidan keyin turardi. Uning ixtiyorida 300 dan ziyod amaldorbo'lgan. Sudlov, notariat ishlarini, ruhoniylar va ta'lim muassasalarini boshqargan boshqozi diniy-sudlov ishlariga rahbarlik qilardi [Toshmurodova S. Q..... 2021. 411- 415 b.].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Buxoro amirligi davlat tizimiga ko'ra mutlaq monarxiya edi. Oliy hukmdor - amir cheklanmagan huquqqa ega bo'lgan va butun hokimiyat uning qo'lida to'plangan. Davlatning ma'naviy rahnamosi bo'lgan amir eng oliy martabali amaldorlar (arkoni davlat) hamda qabilalarning boshliqlari bilan maslahatlashib ish tutgan. Davlat vazifalarini ijro etish to'g'ridan to'g'ri saroydagi u yoki bu lavozimda, yoki biron-bir nufuzli davlat arbobi qo'lida to'planuvchi tartib joriy etildi. Saroyda jami 300 ga yaqin katta-kichik amaldorlar guruhi xizmat qilishgan. Ulardan 30 nafarga yaqini yuqori davlat lavozimlari sanalgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Toshmurodova S. Q., Ergashev A. A., Begmatov A. Q. Ashtarxoniyalar davrida Buxoro xonligining davlat tizimi, saroy va harbiy boshqaruvi. Toshkent. 2021.
- 2.Xabibovich H. B. Buxoro amirligidagi madaniy hayot. Toshkent. 2022.
- 3.O'zbekiston milliy ensiklopediyasi (O'z.ME). Birinchi jild. Toshkent. 2000.
- 4.Shukurov R. Buxoro amirligi tadqiqotlarining tarixshunosligi masalalari. Toshkent. 2019.
- 5.www.wikipedia.uz. internet sayti